



XIX ASR OXIRI XX ASR BOSHLARIDA QO'QON ADABIY MUHITIDA YARATILGAN MAKTUBLARNING BADIYATI

Abdurayimova Irodaxon

*Farg'ona viloyati Beshariq tumani 33-IDUMning
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi*


XIX asr oxiri XX asr boshlarida yaratilgan she'riy maktub namunalari g'oyaviy jihatdan mukammal bo'lishi bilan birga poetik xususiyatlari jihatidan ham boshqa janr namunalaridan qolishmaydi. Poetika yunoncha so'z bo'lib "ijod qilish san'ati" degan ma'noni bildiradi. Maktubot janri namunalari shunchaki ma'lum bir xabarni adresatga yetkazish uchungina yaratilmagan. Ular badiiy asar sifatida ijod qilingan. Ko'p asrlik tarixga ega musulmon Sharqi adabiyotida muayyan ijodkorning badiiy salohiyati va iste'dodi haqida so'z borganda uning tasvir obyekti sifatida nimalarni olgani emas, balki o'sha obyekt yoki predmetni qanday tasvirlagani muhim hisoblangan. Shundan kelib chiqib maktublarning yozilishidan eng asosiy maqsad xabar yo'llash bo'lgan bo'lsada, ularni poetik jihatdan o'rganar ekanmiz, ijodkor ifodalamoqchi bo'lgan g'oya qanday badiiy timsollar, vazn yoki qofiya vositasida bayon qilinganligi bilan bir qatorda, she'riy asarda qo'llanilgan badiiy san'atlarning rang-barangligi, ularning asar mazmunini ochishdagi o'rni va ahamiyati kabi masalalarga ham alohida diqqat qaratishimiz lozim bo'ladi.

Tadqiqot obyektimiz XIX asr oxiri-XX asr boshlarida Qo'qon adabiy muhitida yaratilgan barcha turdagi maktublar bo'lsa-da, biz e'tiborimizni ko'proq she'riy maktublarga qaratmoqni lozim topdik. Nazm va unga mansub janrlar badiiy asarning asosiy ifoda shakli hisoblanib, ularga nasrdan ko'ra "poyasi biyikrak" (martabasi yuksakroq) deb qaralgan. Mumtoz she'r shakllari tarkibiy tuzilishiga ko'ra baytli, bandli hamda bayt asosidagi bandli she'r shakllariga bo'linadi. Baytli she'r shakllarining asosini bayt (arabcha "uy") tashkil qiladi. Ulardan g'azal, ruboiy, fard shaklidagi maktublar ushbu davr maktubotida uchraydi. Ularning ko'p qismini g'azal shaklidagi maktublar tashkil etadi. G'azallarining aksariyati oddiy yoki odatiy g'azal hisoblanadi. Ya'ni, ularning qofiyalanishi: a-a, b-a, v-a... Masalan, Hamzaning noma'lum ayolga yo'llagan maktubida quyidagi oddiy g'azal uchraydi:

Nega bu ko'lmakingga tushdi muncha turli qurog',
Budurki o'ngmag'on o'smirlaringa tushdi o'rog'.
Bu yoz quyoshi shulasing'a qiriy boqq'ondur,
O'lukg'a na qabr ichra tishina qo'ysa chirog'.
O'gurg'uchin alidin otmayur bugun zohid,
Hanuz ilgida chun sevgularni ko'zgu-tarog'.⁴²

G'azallar ichida g'azali qit'a turi ham mavjud bo'lib, u xuddi qit'a kabi qofiyalanganligi uchun shunday ataladi. Uning qofiyalanishi: b-a, v-a, g-a... tarzida

⁴² Хамза. Тула асарлар тушлами. 5 том. - Т.: Фан. 1889. – Б. 7.





bo'radi. Bunday g'azal shaklidagi maktub Zavqiy ijodida ham uchraydi. Uning Furqatga yo'llagan quyidagi maktubi misol bo'la oladi:

Bizlarga siz yozibsiz maktub aylagonda,
Taslim ila duolar maktublarda har bor.
Ul xat aro yozilg'on taslimi shavqomez,
Bizlarg'a ayladilar izhor nurul-absor.
Xursanlig' muyassar bo'ldi, chunonchi hargiz,
Yozg'on bilan tugolmas, poyoni sharh bisyor...⁴³

Maktublar ichida ruboiy janriga mansub bo'lganlari ham uchraydi. Hamzaning 1923-yil 25-oktabrda Mulla Davlatga yo'llagan maktubiga to'rtlik shaklidagi she'r ilova qilingan. Hamzaning "To'la asarlar to'plami" da ushbu she'r ruboiy deb keltirilgan:

Zohid na qadar la'in edayin kufr edayinkim,
Zunnor taqib jannatidin ko'z yumayinkim,
Mo'min tug'ilib shuncha xizmatlarin ko'rdim,
Kafarda islom fazilatlarin ko'rdim.⁴⁴

Ushbu she'rning qofiyalanishi ko'zdan kechirilsa, uning ruboiydan farq etuvchi tomonlari ko'zga tashlanadi, demak, bu, bizningcha, ruboiy emas, qit'a desak, maqsadga muvofiq kelgan bo'lur edi. Ushbu baytlar badiiyati jihatidan alohida e'tiborga molik. Chunki u qofiyasi va badiiy san'atlari bilan jozibadorlik kasb etgan. Masalan, zohid, jannat, mo'min, islom kabi so'zlarning har bir satrda qo'llanishi orqali tanosub san'atining go'zal namunasi yaratilgan. Lekin, shoir Zavqiyning Furqatga yo'llagan quyidagi she'rini ruboiy deyish mumkin:

Jonimg'a tob soldi so'zi firoq, Furqat,
Kel kim, xarob qildi bu ishtiyoq, Furqat,
Qosid etur payomim har yerda topsang oni,
Zavqiyning toqatini ko'p qilma toq, Furqat.⁴⁵

Bundan tashqari Muqimiyning Ro'zimuhammad jiyaning kordcha (qalamtarosh) yuborganligi munosabati bilan yozilgan she'ri ham ruboiy janriga mansub. Muqimiyning nasriy-she'riy maktublarida keltirilgan quyidagi she'rni ham ruboiy deyish mumkin:

Yetkach xatim javobina bir ruq'a soz qil,
Irsol etib bu yanglig' meni sarafroz qil,
Asling na yerdan edin-u, emdi na yerdasan,
Haqni irodasini ko'z och imtiyoz qil.⁴⁶

Maktublar orasida fard shaklidagi she'rlar ham uchraydi. Ular alohida holatda emas, nasriy-she'riy maktublar tarkibida keladi. Ko'pincha Muqimiy va Hamzaning maktublarida salomlashish va xayrlashish qismlarida keltirilgan. Hamzaning birodari Mahmudjonga yo'llagan 1924-yil 18-iyundagi xatida quyidagi fard keltiriladi:

⁴³ Завкий. Танланган асарлар. – Т.: Ўзбек классиклари кутубхонаси. 1950. – Б. 157.

⁴⁴ Хамза. Тула асарлар туплами. 5 том. - Т.: Фан. 1889. – Б. 30.

⁴⁵ Завкий. Танланган асарлар. – Т.: Ўзбек классиклари кутубхонаси. 1950. – Б. 157.

⁴⁶ Муқимий. Асарлар. –Т.: Фафур Фулом. 1974. – Б. 240.





Sevuklu do'stlar bo'lsa har yonda,
Jannat o'lur qumlar, cho'llar yobonda.⁴⁷

Agar kishining yonida sevikli do'sti bo'lsa, u cho'l, yobonda qumlar ichida bo'lsada, u yer kishiga jannat kabi tuyuladi.

Cho'llar, qizigan qumlar, issiq harorat umuman olganda qiyinchilik, mashaqqat ramzi, tashvish, yetishmovchilik ramzi deyish ham mumkin. Agarki, kimning yaqin chin do'sti bo'lsa, kishi boshiga tushgan qiyinchilik, mashaqqatli kunlardan qiynalmay chiqib keta oladi. Chunki chin do'st yaqinini mashaqqatga tashlab qo'ymaydi. Har qanday holatda unga yordam beradi. Ushbu farddan ana shunday tarbiyaviy xulosa kelib chiqadi.

Maktublar tarkibida musammatlarning ham ayrim turlari uchraydi. Musammatlar bandli she'rlardir. Bu davr maktubotida murabba, muxammas shaklidagi she'rlar mavjud bo'lib, ular ko'p emas. Hamzaning nasriy-she'riy maktublari ichida 1922-yil 18-sentabrda Xo'ja elidan turib eng yaqin jo'rasi Bo'ronboy Mirtojiboy o'g'liga yo'llagan maktubi bor. Unda murabba shaklidagi she'r keltirilgan bo'lib, ushbu she'r o'n bandni tashkil qiladi:

Suyuk yurtlar, suyuk ellar,
Suyuk jonlar, sog' o'lg'aysiz.
Kuyuk tanlar, kuyuk tillar,
Kuyuk qonlar, sog' o'lg'aysiz.
Chaman bog'larda o'rtoqlar,
Eli-chun ko'kragi tog'lar,
U yuksuk toqg'a tormog'lar,
Iz urg'onlar, sog' o'lg'aysiz...⁴⁸

Maktublar orasida Muqimiyning jiyani Ro'zimuhammadga yo'llagan muxammas shaklidagi she'ri bo'lib, u tab'i xud muxammas hisoblanadi. U olti banddan iborat:

Oh vaqtekim, ne xush layl-u nahorim bor edi,
Mehribon sandek, yesam g'am, g'amgusorim bor edi.
Maqdamingla boshda toji iftixorim bor edi,
Ko'zlarimda nur-u bellarda madorim bor edi
Qayda sansiz bir nafas emdi qarorim bor edi...⁴⁹


Maktublarda bayt asosidagi bandli she'r shakllari ham uchraydi. Masalan, masnaviy shaklidagi maktublarga Furqatning yuz baytdan iborat "Sabog'a xitob"ini va Muqimiyning 12 baytdan iborat "Qor xat"ini kiritish mumkin.

Qor yog'di ba amri xoliqi hay,
Soqiyo, tut qadahni paydar-pay.
Qor xat xalq ichida rasmi qadim,
Bilki xotir pisanda shoh-u nadim.

⁴⁷ Хамза. Тула асарлар туплами. 5 том. - Т.: Фан. 1889. – Б. 37.

⁴⁸ Хамза. Тула асарлар туплами. 5 том. - Т.: Фан. 1889. – Б. 55.

⁴⁹ Муқимий. Асарлар. –Т.: Фафур Ғулом. 1974. – Б. 450.





...Dunbalik bosh kesing semiz qo'yni,
Yasating bir alohida uyni...⁵⁰

Qor xat mazmunan ham, badiiyati jihatidan ham chiroyli yozilgan. Soqiyga murojaat qilish orqali nido san'atining go'zal namunasi bilan boshlangan maktublar o'zbek adabiyotida ko'p uchraydi. Hamzaning shu usulda yozilgan qor xati bo'lib, u g'azal shaklida yozilgan. Lekin u ham mazmunan Muqimiyning qor xatiga o'xshaydi. Unda ham adresatdan bir katta ziyofat qilib berish va ziyofatga qo'yiladigan talablar o'rin olgan. Bundan kelib chiqadiki, qor xatlarda adresatning ziyofat qilib berish sharti bo'lgan. Maktub masnaviylarni ko'proq lirik masnaviy turiga kiritish maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki ularda syujet bo'lishi bilan birga shoirning lirik kechinmalari, his-tuyg'ulari ko'proq o'z ifodasini topgan.

Qo'qon adabiy muhitida XIX asr oxiri-XX asr boshlarida yaratilgan epistolyar meros o'zining janriy jihatdan xilma-xilligi, shakl va mazmun uyg'unligi bilan alohida e'tiborga loyiq hisoblanadi.

Ushbu davrda yaratilgan qorxatlarni ham tuzilishi, yuzaga kelish maqsadi, ma'lum adresatga yo'llanishini hisobga olib epistolyar meros tarkibiga kiritishimiz mumkin.

Maktublarning janriy tarkibi xilma-xilligi bilan birga badiiyati ham serqirra hisoblanadi. Ularni yozishdan eng asosiy maqsad xabar yo'llash bolsa-da, mualliflar bu xabarni quruqqina yo'llamaydi. Turli badiiy tasvir vositalari bilan boyitib, haqiqiy badiiy asar darajasiga ko'taradi.

Mumtoz lirik janrlarda eng ko'p qo'llanilgan badiiy san'atlardan biri mubolag'adan shoirlar lirik qahramon qalb kechinmalarini qay darajada kuchli ekanligini ifodalash uchun ishlatishgan. Furqat "Sabog'a xitob"ida saboga murojaat qilish orqali nido san'atining go'zal namunasi yaratib, ul oy, husn mulkin podshohi(istiora, yor nazarda tutilgan) ga uning g'amidan qiynalgan holatini mubolag'ali tasvirda quyidagicha ifodalashni saboga aytadi:

G'amingdin kecha tong otquncha yig'lar,
Tong otqoch dog'i kun botquncha yig'lar.⁵¹

Ushbu tasvir mubolag'aning tablig' – aqlan ishonish va hayotda yuz berishi mumkin bo'lgan turiga kiradi.

Shoirlar ijodida ruju san'atining ham go'zal namunalari uchraydi.


Dushanba kunda oqshom anjumandir,
Nechun dey anjumankim bir chamandir.⁵²

Furqat dastlab yor-do'stlari bilan yig'ilishib quradigan suhbatini anjuman deb ataydi. So'ng ko'ngli to'lmay fikridan qaytib, uni chaman deydi. Chunki anjuman deganda shunchaki suhbat nazarda tutilib, shoir uchun bu shunchaki suhbat emasligini

⁵⁰ Муқимий. Асарлар. –Т.: Гафур Ғулум. 1974. – Б. 250.

⁵¹ Фуркат. Танланган асарлар. - Т.: Гафур Ғулум. 1975. - Б.276.

⁵² Фуркат. Танланган асарлар. - Т.: Гафур Ғулум. 1975. - Б.282.





aytmoqchi bo'ladi va uni chamanga, gullar chiroyli bo'lib ochilib turgan gulzorga o'xshatadi. Bunday gullar shoirning yor-do'stlari deb tushunish mumkin.

Yana bir o'rinda shunday deydi:

Agar xat bersalar yoningda saqla,
G'alat aydim, dil-u joningda saqla.⁵³

Bu tasvir orqali yaqinlarining maktubiga javob yo'llashi, o'zlarining ahvolini bildirishi shoir uchun juda muhim ekanligi anglashiladi.

O'shal tiksun bizi qonuncha kamzul,
To'n-u, chalvor-u, ham santura, fantul.⁵⁴

Ushbu baytda Furqatning Muslimxon ismli chevar do'stiga yo'llangan xabari aks etgan bo'lib, unda kamzul, to'n, chalvor, santura, fantul kabi kiyimlarni tikishi aytilgan va bu orqali tanosub san'atining go'zal namunasi yaratilgan.

Muqimiyning "Assalom" radifli maktubi tuzilishi, bir nechta yor-do'stlarning manzilini tasvirlab, ularga ta'rif berishi va salom yo'llashi jihatidan Furqatning "Sabog'a xitob"iga o'xshaydi. Ana shu maktubda Hakim ismli do'stidan xat olganligini aytib, bu paytda bemor bo'lganligi va olgan xati xuddi Luqmon singari dardiga davo bo'lganligini talmeh san'ati vositasida go'zal ifodalaydi. Bu o'rinda do'stining Hakim ismiga mutanosib tarzda Luqmon talmehini qo'llashi Muqimiyning yuksak badiiy mahoratidan darak beradi.

Oxirida xatlari tegdi muharram oyining,
Dardman erdim yetishdi go'yi Luqmon, assalom.⁵⁵

Ayni shu maktubda Muqimiy karamli, sahovatli yor-do'stlaridan ayrilganidan so'ng dunyo ko'ziga zindon kabi qorong'u bo'lib ketganligini tashbeh vositasida ta'sirchan ifodalaydi:

Ayribman siz karampesha, saho andeshadin,
Tangdur dunyo qorong'u misli zindon, assalom.⁵⁶

Dunyo – mushabbah(o'xshamish);
Zindon – mushabbihun bih(o'xshatilmish);
Qorong'u – vajhi shabah(o'xshatish sababi);
Misli – odoti tashbih(o'xshatish vositasi).

Ushbu baytda tashbihning barcha unsurlari mavjudligi uchun bu tashbihi mufassal hisoblanadi.

Tazod badiiy tasvir vositasi sifatida mumtoz adabiyotda eng ko'p uchraydi. Xususan maktublarda ham:

Har sahar g'am yeb tutarman bu mahallar ro'zani,
Shom bo'lsa, aylam mehnat bilan iftor man.⁵⁷


⁵³ Furkat. Tanlangan asarlar. - T.: Ga'fur Gulom. 1975. - B. 283.

⁵⁴ Furkat. Tanlangan asarlar. - T.: Ga'fur Gulom. 1975. - B. 282.

⁵⁵ Muqimiy. Asarlar. - T.: Ga'fur Gulom. 1974. - B. 441.

⁵⁶ Muqimiy. Asarlar. - T.: Ga'fur Gulom. 1974. - B. 439.

⁵⁷ Muqimiy. Asarlar. - T.: Ga'fur Gulom. 1974. - B. 442.





Ushbu baytda yaqinlarida yiroqdaligi va ularning sog'inchidan qiynalganligi uchun ro'zada g'am bilan saharlik qilib, iftorlikda mehnat(mashaqqat) bilan og'iz ochishini shunday tasvirlayapti. Bu orqali tun-u kun g'amda ekanligini aytmoqchi. Sahar va shom zid ma'noli so'zlarining qo'llanilishidan yuzaga kelgan tazod san'ati lirik qahramonning ahvolini ta'sirli bayon qilishga yordam bergan. Ro'za va iftor uyadosh so'zlarini qo'llanilishidan paydo bo'lgan tanosub san'ati ham baytning go'zalligini ochishga va ohangdorlikni ta'minlashga xizmat qilgan.

Muqimiy maktublarida mulamma san'atining namunalari ko'p uchraydi. Shoir baytlarida fors-tojikcha misralardan ham mohirona foydalanadi. Turkiy so'zlar bilan boshqa tildagi so'zlarni qofiyadosh qilib keltira olganligi Muqimiyning yuksak badiiy mahoratidan darak beradi:

Ruq'ayi manzuma qildim ming hijolatlar bilan,
Xushki holi meravad savg'o zi domon, assalom.⁵⁸

(nazm bilan bir xat yozdim, lekin afsuski salomimni quruqdan quruq ming hijolatlar bilan sizga yuboraman.)

Nido badiiy san'atidan Furqatning bir necha maktublarida saboga murojaat qilish o'rinlarida foydalanilganligi ma'lum. Muqimiy maktublarida ham aynan saboga murojaat orqali ushbu san'atning go'zal namunalari yaratilgan. Shu o'rinda saboga murojaatning mumtoz adabiyotimizda keng tarqalganligini va maktublarda ham ularning eng yorqin namunalari mavjudligini aytish joiz.

Mandin, sabo, chaman sari qilsang guzar, degil,
Gulchehralarni sarvi xiramoniga salom.⁵⁹

Maktublarning yozilishidan eng asosiy maqsad, yuqorida aytib o'tganimizdek, xabar yo'llash hisoblansada, Qo'qon adabiy muhitida XIX asr oxiri-XXasr boshlarida yashab ijod etgan maktubnavis shoirlar o'zlarining she'riy va nasriy maktublarini turli badiiy tasvir vositalari bilan boyitib, ularni haqiqiy badiiy asar darajasida yarata olganlar va aynan shuning uchun ham bu davrdagi maktublar o'zbek adabiyoti uchun muhim hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.Муқимий. Асарлар. – Т.: Гафур Гулом. 1974.
- 2.Фуркат. Танланган асарлар. - Т.: Гафур Гулом. 1975
- 3.Хамза. Тула асарлар туплами. 5 том. - Т.: Фан. 1889.
- 4.Завқий. Танланган асарлар. – Т.: Ўзбек классиклари кутубхонаси. 1950.
5. Shaxnoza, U. (2022). Comparative Study of Cosmonims (Sun, Moon...) In Uzbek and English. Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences, 7, 72-75.

⁵⁸Муқимий. Асарлар. – Т.: Гафур Гулом. 1974. – Б. 441.

⁵⁹Муқимий. Асарлар. – Т.: Гафур Гулом. 1974. – Б. 455.

